



## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASH ELEMENTLARINI SHAKLLANTIRISHDA ONA TILINI O'RGANISHNING O'RNI**

**Qahramonov Aliboy Yolgoshevich**

*Filologiya fanlari nomzodi, ISFT instituti katta o'qituvchisi*

**Mahmudova Nigora Boriboyena**

**Zokirova Feruzaxon Mamasidiq qizi**

**Adhamjonova Sumanbar Shuhratjonovna**

*ISFT instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabalari*

**Annotatsiya:** Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o'rganishning o'rni haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili, boshlang'ich sinf, ta'lim, til, dunyoqarash, rivojlanish, bilim, tafakkur, darslik, omil.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish vazifalaridan biri ularda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti – o'quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirishdir. Quyida ko'rsatilgan omillar tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish usulini belgilaydi:

1. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Maktabda, shu jumladan, boshlang'ich sinflarda tilni o'rgatishning yetakchi yo'nalishi o'quvchilar tomonidan tilning aloqa vazifasini bajarishini tushunishlariga erishish hisoblanadi.

2. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi.

Maktabda tilning barcha tomonlari (talaffuzi, fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, so'z yasalishi)ni o'zaro bog'liq holda o'rganish ona tilini o'rgatishdagi yetakchi tamoyil bo'lib, uni amalga oshirish o'quvchilarning tilni murakkab, rivojlanuvchan, o'zaro bog'langan muhim tomonlarga ega bo'lgan hodisa sifatida anglab yetishlari uchun ilmiy asos yaratadi. Tilning mohiyatini



bunday idrok etish hodisalarning rivojlanuvchanligi va o'zaro bog'langan qismlardan tuzilishini tushunishga zamin hozirlaydi.

Maktab tajribasi va maxsus tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, yuqorida qayd etilgan dastlabki qoidalarni o'quv jarayonida amalga oshirishda ijtimoiy hodisa sifatida til haqidagi bilimlar majmuasini to'g'ri tanlash, asosiy til hodisalarini va turlarini tushuntirishda o'qituvchining tutgan metodologik yo'lining aniqligi, o'quvchilar fikrlashini faollashtirish, til nazariyasini o'rgatishga asos bo'ladigan til materialining yuqori sifatli bo'lishi kabi dalillar hal qiluvchi ta'sir etadi.

SHubhasiz, har bir omil maktab tajribasida bir-biridan ajralgan holda bo'lmaydi. Aksincha, ularning bir-biriga to'g'ri, maqsadga muvofiq ta'siri ijobiy natija beradi.

Tilning rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lni o'rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o'rinda «So'zning tarkibi» bo'limi katta imkoniyatga ega. O'quvchilar bu bo'lim materiallarini o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasalihi bilan tanishadilar.

Ma'lumki, ko'pgina yangi so'zlar tilda mavjud bo'lgan so'zlar zaminida yaratiladi, tilda bor qoliplar kabi yasaladi: *limon* tipida *limonzor*, *suvchi* tipida *bo'zchi* kabi. Tilda yangi so'zning paydo bo'lishi o'zidan keyin bir xil o'zakli so'zlar guruhining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi: *ishli*, *ishsiz*, *ishchi* kabi.

Boshlang'ich sinflarda tilning rivojlanishi haqidagi masala maxsus o'rganilmaydi. Tilga jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda rivojlanadigan hodisa sifatida ilmiy qarashga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Tilning leksik tomoni boshqalariga nisbatan xarakatchan, tez rivojlanadigan bo'lgani uchun, til leksikasi misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilning ham rivojlanishi tushuntiriladi. Tilning leksik tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar yuzasidan o'qituvchi va o'quvchilarning kuzatishlari bolalarda dunyoni bilish haqidagi tasavvurini shakllantirishga mos material beradi.

Tildan bilim berishda o'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish muhimdir. O'qituvchi nazariy xarakterdagi umumlashtirish zarur bo'lgan daliliy materiallarni yig'ish bosqichida ham, berilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun ham bolalarning hayotiy tajribasiga, nutqqa oid amaliyotiga tayanadi. Tilga oid bilimni o'rganish natijasida o'quvchilar nutq faoliyatining sifati o'zgaradi, ongliligi ortadi.

Dialektik tafakkur keng ma'noda hodisalarning boshqa hodisalar va jarayonlarga bog'liqligini hisobga olib, ularni har tomonlama mavjud belgilari yig'indisi bilan rivojlanishda ko'rish ko'nikmasini ta'riflaydi. Tafakkurning bunday sifati o'quvchilarda asta-sekin shakllana boradi va o'z navbatida, ular kuzatish jarayonida dalillarni topish, ularni tahlil qilish va o'rganiladigan hodisalarning



ayrim tomonlari o'zaro bog'liqligini aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmasini egallab boradilar.

Keyingi yillarda o'quvchilarning o'quv faoliyati tobora izlanish xarakteriga ega bo'lmoqda. Tilni o'rganishda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ayrim qoida va aniqliklarni yodlab olish emas, balki atrofdagi hayotni kuzatish asosida o'quvchilarning o'zlari «topgan» yoki adabiy manbalardan tayyor olingan til materialini maqsadga muvofiq analiz va sintez qilish yetakchi hisoblanadi.

Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning haqiqiy tomoni, uning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishini tarbiyalaydi, o'quvchilarning umumiy taraqqiyoti darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatlarining, dunyoqarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Keyingi yillarda maktab ona tili darsliklari va o'qituvchilar uchun nashr qilingan qo'llanmalar materiali mazmuniga qo'yilgan talablar anchagina ortdi. Materialning asosiy mezonlari matn va alohida gaplarning bilimni boyituvchi qimmatlari, leksik-uslubiy aniqligi, mavzu jihatdan xilma-xilligi, hayotning turli tomonlari bilan bog'lanishi, matnlarning g'oyaviy-mavzuviy yo'naltirilganligi, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir.

SHunday qilib, tilni o'rganish jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga o'qituvchining metodologik yondashuvi, o'quvchilar o'zlashtiradigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib boruvchi til haqidagi bilimlar majmuasi, o'quvchilar o'rganib oladigan bilish usuli, tilni o'rganishga asos bo'ladigan materialning bilim berishdagi, g'oyaviy-siyosiy va badiiy qimmatlari hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan ekan.

O'quvchilarda dunyoqarash asoslarini shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlarning barcha tizimida hal qilinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'ulomov A. Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari. T.: O'qituvchi, 1992
2. R.Qosimova, Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish, T.: 1964.
3. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. SH.Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. T.,Noshir, 2009.
4. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika. – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo. 2020.



5. Mehriddinov Z. Isamuhammedov O. “Boshlang‘ich ta‘lim saboqlari” Toshkent 2014.
6. R.Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne‘matova, Ona tili (2-sinf uchun darslik). T.: Cho‘lpon, 2005.
7. K.Qosimova, A. Ne‘matova. 2-sinfda ona tili darslari. Cho‘lpon, 2004
8. M.Xudoyberganova, M.Muxtorova. 3-sinfda ona tili darslari T.: „O‘qituvchi“, 2005.
9. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1985-yil.